Jo’rayeva Mehriniso

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7622025

https://explore.openaire.eu/search/publication?pid=10.5281%2Fzenodo.7622025

MATN VA USLUB MUNOSABATI. BADIIY NUTQ USLUBI

Annotatsiya: ushbu maqolada o’zbek tilining vazifaviy uslublari, ularning asosiy xususiyatlari, shuningdek matn bilan o’zaro munosabati, badiiy nutq uslubining matnda bajaradigan alohida vazifasi kabi fikr-mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: uslub, qolip, aniqlik, vazifaviy uslub, ekstralingvistik omil, badiiy nutq uslubi, mantiqiylik, izchillik, qisqalik, obyektivlik, muallif-hikoyachi nutqi, qahramon-hikoyachi nutqi, monologik nutq, dialogik nutq.

O’zbek tili uslublarini vazifaviy jihatdan tasnif qilish ikki omilga va yana tildan tashqari bo’lgan omillarga tayanadi. Bu uslublarning N.A. Baskakov, A. Sulaymonov, A. Shomaqsudov, G’. Abdurahmonov, B. O’rinboyev, S. Muhammedovlar tomonidan tavsiya etilgan variantlari mavjud bo’lib, ular asosan beshta: so’zlashuv, ommabop, ilmiy, rasmiy, badiiy uslublar e’tirof etiladi[1,43].

Rasmiy uslub hozirgi o’zbek tilining davlat ma’muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarda namoyon bo’ladigan ko’rinishidir. Shuningdek, qonun matnlari, farmonlar, buyruqlar, farmoyishlar, xullas, barcha rasmiy ish qog’ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning o’z me’yorlari mavjud. Jumladan, ularga misol tariqasida aniqlik va qolipni keltirishimiz mumkin bo’ladi. Aniqlik – yuqorida aytib o’tilganidek, yozilayotgan har bir farmon, buyruq va farmoyishlar, qonun-qoidalar majmuasi sodda, aniq va ravon yozilishi rasmiy uslubning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Rasmiy uslubning ikkinchi yana bir muhim xususiyati sifatida qolipni keltirishimiz mumkin. Qolip – rasmiy uslubda bayon etilayotgan fikr-mulohazalar maxsus qoliplanadi. Jumladan, ariza,

bayonnoma, shikoyatnoma, tavsifnoma kabi rasmiy murojaatlarning barcha-barchasi o'zining maxsus qolipiga egadir.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubi sanaladi. Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng hisoblanib, monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanmasi, o'quv metodik qo'llanma, o'quv qo'llanma, dastur, ma'ruza, taqriz, referat kabi janr ko'rinishlarni o'z ichiga oladi. Ilmiy uslubga xos xususiyatlarga quyidagilar kiradi: 1. Aniqlik;

2. Obyektivlik;

3. Mantiqiy izchillik;

4. Qisqalik[1,44]

Ommabop uslub imkoniyatlarining kengligi lingvistik va ekstralingvistik tildan tashqaridagi omillarning mustahkam aloqadorlikda kuzatamiz. Bu uslubda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, ularning axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakterida bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy, siyasiy terminologiyaning qo'llanilishi va tilimizda me'yorlashishiga sabab bo'ladi.

So'zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy, norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. U ma'lum ma'noda tildagi boshqa uslublarga qarama-qarshi turadi. Bu uslubning o'ziga xos jihati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg'un bo'lishidir.

Badiiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari ichida alohida mavqega ega bo'lib, o'zining alohida til me'yorlariga egadir. Badiiy uslubning asosiy xususiyati til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ishlatilaverishi bilan alohida xarakterlanadi. Voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalashning asosiy vositasi badiiy nutq uslubi hisoblanadi. Badiiy nutq uslubi insonning fe'l-atvorini, uning ichki dunyosini, ruhiy holatlarini, tabiatdagi turli voqea-hodisalarni tugal, butun murakkabligi

bilan ifodalash imkoniyatini o'zida mujassam qilganligi bilan diqqatga sazovordir[2,37] Badiiy nutq uslubining eng xarakterli jihati tasviriylik va aemotsionallik hisoblanadi. Agar ilmiy uslub umumlashgan tushunchalarni qat'iy qolipga slogan, maxsus terminlar va formulalar bilan anglatsa, badiiy uslub o'z zaxirasidagi so'zlar yordamida inson qalbi va tabiatining eng nozik nuqtalarigacha tasvirlash imkoniyatiga ega. Badiiy nutq uslubida muallif asarning obrazliligini, estetik ta'sir darajasini kuchaytirish maqsadida tilning tasviriy vositalaridan unumli va ijodiy foydalanadi, shuningdek o'zi ham yangi so'z va ifoda shakllarini kashf qiladi. Shuning uchun ham mahoratli yozuvchilar uchun mavjud tildagi so'z zahirasi har doim cheklangan imkoniyat hisoblanadi. Asar yozishlari davomida o'zlari yangidan yangi individual so'z va iboralar ijod qilish, yaratish payida bo'lishadi.

Badiiy nutq uslubida til betakror qiyofa, fe'l-atvor, voqelikka mos manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Boshqa uslub materiallari badiiy nutqda muallif maqsadiga binoan erkin ishlatilishi mumkin. Bu uslubda har bir yozuvchi voqelikni badiiy idrok etish ko'lami, ijodiy salohiyati, ifoda mahorati, matnni kompozitsion shakllantirish tarziga qarab bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, badiiy nutq uslubi boshqalariga qarganda keng imkoniyatlarga ega, o'ta qamrovdor va tasviriy ifoda vositalariga boy nutq ko'rinishi hisobllanadi. Badiiy matn badiiy nutq uslubida yaratiladi[3,45].

Badiiy nutq asar ichida muallif tomonidan qay tarzda hikoyalanishiga qarab yozuvchining fikrlash doirasi, yozish uslubi, falsafiy mushohadasi haqida tasavvur hosil qilamiz. Muallif bayon jilovini badiiy-estetik niyatiga ko'ra goh o'z qo'lida ushlab turadi, goh personajlar qo'liga tutqazadi, goh o'z hikoyachisiga topshiradi. Natijada kitobxonni zeriktirmaydigan, realizmning mundarijasini kengaytira oladigan ko'pqirrali tasvirbhikoya nutqi – polifonik nutq paydo bo'ladi[4,7].

Badiiy asar matnida muallif nutqi va qahramonlar nutqi farqlanadi. Qahramonlar nutqi ichki yoki tashqi, dialogik yoki monologik nutq ko'rinishlarida bo'ladi. Muallif nutqi badiiy asar tilining muhim qismi hisoblanadi. Unda qahramonlarga, Voqelikka nisbatan yozuvchi munosabati ifodalangan bo'ladi. Muallif nutqi ikki xilda ifodalanadi:

1.Muallif-hikoyachi nutqi – bunda asar voqealarini so'zlab beruvchi odam yozuvchining o'zi bo'ladi. Peyzaj tasviri, va qahramonlar qiyofasi, fe'l-atvori, ularning ruhiy holati, ma'naviy takomili hamda ularning ongida ro'y bergan o'zgarishlar muallif-hikoyachi nutqida xolis bayon shaklida keltiriladi[3,38;39]. Bunda ko'rinib turadiki, badiiy asar tilining qiziqarli va tasirchan bo'lishi, til birliklarining to'g'ri tuslanishi, matn mazmuniga mos kelishi muallif-hikoyachi nutqiga bog'liq. Muallif-hikoyachi nutqida voqelikni tashqaridan kuzatish, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini oshkora yoki yashirin bildirish sezilib turadi. Agar muallif qahramonga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lsa, badiiy asar matnida aynan o'sha qahramonga nisbatan muallif-hikoyachining xayrixohligini sezib turamiz.

Arloni bo'ri – Cho'ngkalla tunda yog'ib o'tgan qor yuzida qolgan izga ergashib, Bevatepa etagiga, qon to'kilgan yonbag'irlikka yetib kelganida, qish oftobi yoyilgan, biydek oppoq dasht ko'zni olar darajada yaltirardi. Tungi sovuq hiyla tob tashlagan bo'lsa-da, tog' tomondan esayotgan izg'irin etni ayovsiz chimchilar, bir ozdan so'ng bu izg'irin, kunbotishdan qo'zg'oladigan iliq havo bilan almashinib, eruvchanlik boshlanar va dasht fayzsiz, ya'ni olachaloq tus olardi. Cho'ngkallani xavotirga solgan narsa boshqa tomonda, ya'niki hidlarning qorishiqligida edi.(N. Norqobilov)

2.Qahramon-hikoyachi nutqi – ayrim asarlarda yozuvchi asar voqeasini atayin qahramonga hikoya qildiradi. Masalan, O'. Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asarida Rustam tilidan, A. Yo'ldoshevning "Puankare" asari o'qituvchi tilidan hikoya qilinadi. Bunday ifoda tarsi yozuvchining badiiy-estetik niyati bilan bog'liq ehtiyojidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bejiz bunday ehtiyoj tug'ilmaydi. Chunki yozuvchi uchun o'zining tilidan hikoya qilganligidan ko'ra o'z asari qahramoni tilidan hikoya qilinsa, o'sha qahramonning nozik xilqatlarini o'quvchining ko'z o'ngida gavdalantira oladi, shuningdek o'sha qahramonning atrofdagilar bilan munosabati yaqqol ochib beriladi. Misol uchun ushbu "Puankare" hikoyasini olishimiz mumkin: "Vaqt ta'sirini o'tkazmaydigan narsaning o'zi qolmapti. Hatto asl mol ham uning qoshida ojiz ekan". Bundan o'ttiz besh yil burun Maskovda mana shu portfelni naq bir yuz yigirma rublga olayotganimda sotuvchi "toza charm. Sizga yuz yil ximat qiladi. Hatto bir asrdan keyin ham yangiday turadi!' deb rosa og'iz

ko’pirtirgan,yonimda turgan o’zim qatori ahli urfonning ayrimlari esa ko’rsatkich barmoqlarini chakkalariga tirab, aylantirishdan o’zlarini tiyisholmagan, baayni aytmoqchi bo’lgandilarki, tentaklik ham evi bilan-da, sichqon sig’mas iniga, g’alvir bog’lar dumiga, deganlari asli shu. ushbu parchada yuqorida ta’kidlab o’tganimdek, qahramon-hikoyachi nutqi uchraydi.

Qahramonlar nutqi – badiiy asarda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi o’z asari qahramonlarini individuallashtirish orqali ularning ma’naviy dunyosini, ichki kechinmalarimi, hissiyotlarini, fikrlash tarzini, dunyoqarashi va atrofdagilarga munosabatini aks ettiradi. Qahramonlar nutqi orqali uning qanday muhitda yoki qayerda yashayotganligi, qaysi shevaga mansuvligi, qaysi toifaga mansubligi, kim bilan nima haqida suhbatlashayotganligi, uning suhbatdoshlariga munosabati va boshqa ma’lumotlarga ega bo’lamiz. Qahramonlar nutqi dialogic yoki monologik nutq ko’rinishlarida bo’ladi. Dialogik nutq deb ikki yoki undan ortiq qahramonning o’zaro muloqotiga aytiladi. Dialogik nutqda qahramonlar tabiatini aniq ifodalash imkoniyati mavjud bo’ladi. “Dialogik matn ikki shaxsning mavzuviy va mantiqiy bir butunlikni tashkil etadigan, biri ikkinchisini to’ldirib, aniqlab, izohlab keladigan gaplar yig’indisidan tashkil topgan bir butun nutqiy birlikdir”[5,71].

Yozuvchimishsiz, shu rostmi? – dedi qiziqishini yashirmay. Endi biz haqimizda felyeton yozasizmi?

Felyeton? Kim aytdi?

Hamma aytyapti.

Felyeton nimaligini bilasanmi o’zing?

Qamalganlar haqida yoziladi-da?

Yo’q, bu gaping noto’g’ri. Felyeton birovni fosh qilish, undan kulish uchun yoziladi. Ahvolingizdan kulish esa insofdan emas. Senga o’xshagan bolaning ahvolini bir kitob qilmoqchiman. Shuni o’qigan bola yomon yo’lga kirishidan o’zini tiyar degan niyatim bor.(T. Malik “Alvido bolalik”)

Ushbu asarda qo'llanilgan qahramonlar nutqi orqali asar vaqealari individuallashtiriladi, asarda bo'layotgan voqealar kitobxonning ko'z o'ngida gavdalantiriladi. Asarda suhbatlashayotgan ikki qahramonning nutqi ta'sirchan tarzda ochib beriladi va atrofdagilarga, shuningdek voqelikka munosabati yaxshiroq ko'rsatib beriladi. Qahramonlar nutqi ikki shaklda: dialogik hamda monologik nutqda namoyon bo'lgani holda, dialogic va monologik nutq ham uch ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: ichki nutq, tashqi nutq va parallel nutq. Normurod Norqobilovning "Qoyalar ham yig'laydi" qissasida Ernazar polvonning "men" bilan suhbati dialogik nutq xarakterida lekin ifoda tarzi ichki shaklida berilganligini guvohi bo'lamiz. Parallel nutqda qahramon ichki va tashqi nutqlarining bir vaqtda namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, matn va nut uslubi va ularning munosabati bir biri bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Matn tarkibida qo'llanayotgan har bir uslubning ahamiyati nihoyatda kattadir. Shular ichida badiiy asar matni uchun alohida mavqega ega bo'lgani albatta badiiy uslub sanalar ekan. Badiiy uslub badiiy asar matniga o'zgacha tarovat va joziba berishi bilan bir qatorda, asarda qo'llanayotgan so'zlarning ham jozibador bo'lishini ta'minlab beradi. Chunki bu badiiy uslubda boshqa uslublardan farqli o'laroq o'zgacha ruhdagi, o'zgacha ko'rinishdagi so'zlar qo'llanilishi bilan bog'liq. Shuningdek asar davomida badiiy uslubdan tashqari boshqa uslubdagi so'zlar ham qo'llanilishi mumkin. Qanday qilib deydigan bo'lsak, asar qahramonlari rasmiy idora vakili lavozimida faoliyat yuritsa, rasmiy uslub, yoki o'qituvchi, shifokor va boshqa kasb egasi bo'lsa, ilmiy uslub va yana asarda radio, jurnalistikada ishlaydigan qahramonlar bo'ladigan bo'lsa, publitsistik, oddiy xalq vakillaridan bo'lsa oddiy so'zlashuv uslubidan foydalanish kabi holatlarni kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Qurbonova., M. Yo'ldoshev. Matn tilshunosligi. – Toshkent "Universitet", 2014.

2. M. Yo'ldoshev. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008.

3. M. Yo'ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007.

4. Z. Rahimov. “Ko’hna dunyo” romani poetikasi, - Farg’ona, 2005.

5. M. Saidxonov. Dialogik nutqning kommunikativ tahlili//O’TA.,2004.

6. M.S. Jo’rayeva., I.X. Xidirova, “TEMIR XOTIN” DRAMASINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI // INTERNATIONAL CONFERENCES 1(1), 492-496, 2023.